

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o 'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojidadagi falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 28-284:28-262:331

INSON VA MEHNAT: FALSAFIY TAFAKKUR TARIXIDA IZLANISH
(ikkinchi maqola)**ЧЕЛОВЕК И ТРУД: ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ**
(вторая статья)**MAN AND LABOR: A RESEARCH IN THE HISTORY OF PHILOSOPHICAL THOUGHT**
(second article)**Sobirov Dilmurod Abdulxakimovich** 

Andijon davlat universiteti, Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola "Mehnatga doir falsafiy qarashlar taraqqiyoti" mavzusidagi tadqiqotimizning mantiqiy davomi bo'lib, sanoat inqilobi davridan boshlab shakllangan falsafiy yondashuvlar, xususan kapitalizm va sotsialistik tafakkur asosida mehnat tushunchasining qanday rivojlanib borganini tahlil etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi mehnat tushunchasining tarixiy-falsafiy shakllanishi va evolyutsiyasi orqali, mehnatga bo'lgan munosabatning turli bosqichlarda qanday o'zgarib borganini hamda bu o'zgarishlar natijasida mehnatning mazmuni va mohiyatida yuzaga kelgan tafovutlarni aniqlashdan iboratdir. Bu tahlil zamonaviy davrdagi mehnat va mehnat munosabatlarning echimini topishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация

Данная статья является логическим продолжением исследования по теме «Развитие философских взглядов на труд». Во второй части статьи анализируется развитие понятия труда на основе философских подходов, сформировавшихся со времён промышленной революции, в частности, капитализма и социалистической мысли. Основная цель статьи – выявить через историко-философское становление и эволюцию понятия труда, как менялось отношение к труду на разных этапах и какие различия в содержании и сущности труда возникли в результате этих изменений. Данный анализ служит важной теоретической основой для поиска решений проблем труда и трудовых отношений в современную эпоху.

Abstract

This article is a logical continuation of the research on the topic "Development of Philosophical Views on Labor", and in the second part, an analysis is made of how the concept of labor has developed based on philosophical approaches formed since the industrial revolution, in particular, capitalism and socialist thinking. The main purpose of the article is to identify, through the historical and philosophical formation and evolution of the concept of labor, how attitudes towards labor have changed at different stages and the differences that have arisen in the content and essence of labor as a result of these changes. This analysis serves as an important theoretical basis for finding solutions to labor and labor relations in the modern era.

Kalit so'zlar: kapitalizm, abstrakt mehnat, almashinuv qiymati, iqtisodiy qiymat, protestantlik, dunyoviy asketizm, "kasbga chaqiriq" (calling), predestinatsiya, postmehnat jamiyati.

Ключевые слова: капитализм, абстрактный труд, меновая стоимость, экономическая стоимость, протестантизм, светский аскетизм, «призвание», предопределение, посттрудовое общество.

Key words: capitalism, abstract labor, exchange value, economic value, Protestantism, secular asceticism, "calling", predestination, post-labor society.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyotning yangi bosqichiga (sanoat inqilobi va kapitalizm davri) o'tishi bilan birga, mehnat va mehnat munosabatlari doir qarashlar ham sezilarli darajada o'zgarishga uchradi. Yangi davrda mehnat faqat moddiy ne'matlar yaratish vositasi sifatidagina emas, balki insonning o'zini anglash, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish va shaxs sifatida kamol topishining muhim omili sifatida talqin qilina boshlandi. Bu holat mehnatni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-falsafiy qadriyat sifatida ham qayta baholash zaruratini yuzaga keltirdi. Bu davrda mehnat va mehnat munosabatlari o'zgarib borar ekan, ijtimoiy-falsafiy tafakkur bu jarayonlarni chuqur tahlil qildi. Mehnat endi nafaqat ishlab chiqarish vositasi, ayni paytda, insoniylik mezonini, erkinlik ifodasi va ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maqolada ilgari surilgan muammoni tahlil etishda Fridrix Engels, Karl Marks, Georg Zimmer va Maks Veber singari yirik mutafakkirlarning mehnatga oid konsepsiyalari tahliliy asos qilib olingan. Ularning mehnatga doir falsafiy qarashlari asosida tegishli ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning asosiy metodologik prinsiplari – mantiqiylik va tarixiylik yondashuvi, tahlil (analiz) va umumlashtirish (sintez) usullari, shuningdek, qiyosiy tahlil metodi hamda obyektivlik prinsipi asos qilib olindi.

NATIJA VA MUHOKAMASI

XVIII asr ikkinchi yarmida, xususan, Angliyada sanoat inqilobi yuz berdi. Par dastgohlari, to'quv mashinalari ixtiro qilindi, temir yo'l transporti yo'lga qo'yildi. Bu yutuq va o'zgarishlar mehnat jarayonlariga ta'sir qilmasdan qolmadi. Qo'lda bajariladigan ishlar o'rnini mashinalar egallay boshladi. Bu o'zgarish va yangilanishlar kapitalistik ishlab chiqarish tizmini mustahkamladi. Kapitalizmning rivojlanishi bilan mehnatni tashkil etish va jamiyatning ijtimoiy tuzilishida sezilarli o'zgarishlar, mehnatning tobora mexanizatsiyalashdi va sanoatlashib bordi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va iqtisodiy rivojlanishga olib keldi. Biroq, Bu o'zgarish va taraqqiyot fabrika va konlardagi ish sharoitlariga ijobiy ro'l o'ynamadi. Ish sharoitlari og'ir va xavfli bo'lib, bu ishchilar sinfida ijtimoiy muammolar va norozilikla keltirib chiqardi. Bu muammolarni hal qilish maqsadida, ishchilar o'z huquqlari va yaxshiroq ish sharoitlari uchun birlashib, kasaba uyushmalarini tashkil qila boshladilar. Bularning barchasi o'sha davrning faylasuflarini mehnat muammosini yangicha tushunishga undadi. Bu esa insoniyat tarixida muhim rol o'ynagan bir qator ideologiyalarning yuzaga kelishiga olib keldi.

Yangi davr g'oyaviy-falsafiy tafakkurida mehnatning ontologik va ijtimoiy mohiyatini yoritishda Fridrix Engels (1820-1895 y.y) alohida o'rin egallaydi. U o'zining dialektik-materializm yondashuvi orqali mehnatni insoniyat taraqqiyotining markaziy omili sifatida tahlil qilgan. Fridrix Engelsning "Maymunning odamga aylanish jarayonida mehnatning roli" (nemischasi: *Der Antheil der Arbeit an der Menschwerdung des Affen*) nomli maqolasida mehnatning inson evolyutsiyasidagi hal qiluvchi rolini tushuntiradi. Bu asar Engelsning ilmiy-falsafiy qarashlarini ifodalaydi va Karl Marks bilan birgalikda ishlab chiqqan dialektik-materializmga asoslangan. Bu maqola dastlab "Qullikning uchta asosiy shakli" ("Die drei Grundformen der Knechtschaft") deb nomlangan kattaroq asarga kirish sifatida yozilgan edi. Keyinchalik, Engels bu nomni "Ishchining qulligi. Kirish" ("Die Knechtung des Arbeiters. Einleitung") deb o'zgartirdi. Ammo bu ish tugallanmaganligi sababli, Engels oxir-oqibat o'zi yozgan kirish qismiga qo'lyozmaning asosiy qismi mazmuniga mos keladigan "Maymunning odamga aylanishi jarayonida mehnatning roli" sarlavhasini berdi. Maqola katta ehtimol bilan 1876 yil iyun oyida yozilgan va birinchi marta 1896 yilda "Neue Zeit" jurnalida bosilgan [2. B. 10].

"Siyosiy iqtisodchilar ta'kidlaganidek, – Engels yozadi, – mehnat – har qanday boylikning manbai. U haqiqatan ham boylikni yaratishda tabiat bilan bir qatorda ishtirok etadi. Chunki tabiat unga boylikka aylantiriladigan moddiy materiallarni taqdim etadi. Biroq, mehnat bundan ham beqiyos darajada muhimroqdir. U insoniyat hayotining eng birlamchi va asosiy sharti hisoblanadi. Hatto shunday darajada muhimki, biz ma'lum ma'noda shuni aytishimiz mumkin: mehnat insonning o'zini yaratgan" [3. B. 134].

Engels bu g'oyani XIX asrning o'rtalaridagi ilmiy bilimlarga asosan ishlab chiqqan. Xususan, Darvinning "Turlarning kelib chiqishi" (1859) asari Engels va Marksga katta ta'sir qilgan. Ular evolyutsiya g'oyasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish nazariyasi bilan bog'lab, tarixiy materialistik yondashuvni ishlab chiqqanlar. Engels tarixni, jamiyatni va insonni mehnat faoliyati asosida tushunishga harakat qilgan. U biologik evolyutsiyani ijtimoiy evolyutsiya bilan bog'lashga harakat qilgan, ya'ni inson shakllanishida mehnatning hal qiluvchi rolini asoslashga harakat qilgan.

Engels fikricha, aynan mehnat – ya'ni atrof-muhitni ongli ravishda o'zgartirish faoliyati – maymunni inson darajasiga olib chiqdi. U dastlabki oddiy mehnat shakllari (masalan, tayoq yoki toshdan foydalanish) aqlning rivojiga sabab bo'lganini ta'kidlaydi. Maqolada qo'l mehnati evolyutsiyada hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ko'rsatiladi. Mehnat jarayonida odamlar o'zaro muloqotga ehtiyoj sezadi, bu esa tilning paydo bo'lishiga olib kelgan. Til esa aqlni, fikrlashni rivojlantirishda asosiy omil bo'lgan. Mehnat orqali inson tabiatga faol ta'sir o'tkazishni o'rganadi. Bu esa ongning, tafakkurning shakllanishiga olib keladi [3. B. 15]. Engelsning fikrlari ayniqsa "Sovet ittifoqi" davrida, kommunistik mafkura asoslarini mustahkamlash uchun keng qo'llanilgan. Kommunistik mafkura insonni jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari va mehnat orqali shakllangan mavjudot deb ko'rsatishga harakat qilgan edi. Bu esa Engelsning g'oyalari bilan to'la mos kelardi.

Boshqacha aytganda, Engelsning nazariyasi keyinchalik siyosiy maqsadlarda ko'p tahlil qilindi va kommunizm targ'ibotida fundament bo'lib xizmat qildi. Fridrix Engelsning "Mehnat maymunni odamga aylantirgan" degan g'oyasi tarixiy-materialistik qarashlar asosida ilgari surilgan bo'lsa-da, bu fikrga qarshi bo'lgan yoki uni to'liq qabul qilmagan turli yondashuvlar mavjud. Engelsning g'oyasi o'z davri uchun inqilobiy edi va mehnatning tarixiy-iqtisodiy rolini chuqur tahlil qilgan. Biroq, zamonaviy fan bu masalaga multifaktorial yondashadi. Ya'ni, insonning shakllanishida biologik, ijtimoiy, madaniy, psixologik va ekologik omillar o'zaro bog'liq holda rol o'ynagan. Mazkur mavzu keng qamrovli va alohida ilmiy izlanish talab qiladigan masala bo'lganligi tufayli, bu o'rinda unga batafsil yondashilmadi.

Nemis faylasufi va iqtisodiy nazariyotchilaridan yana biri Karl Marks (1818–1883) XIX asrda yashab ijod qilgan bo'lsa-da, uning mehnat haqidagi qarashlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, "1844 yildagi iqtisodiy-falsafiy qo'lyozmalar", "Nemis mafkurası" hamda "Kapital" asarlarida Marks mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, inson mehnati orqali begonalashuvi va ekspluatatsiya kabi tushunchalarni chuqur tahlil qilgan. Uning g'oyalari hozirgi davrda ham sinfiy ijtimoiy munosabatlar, adolat va iqtisodiy tengsizlik masalalarini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

"Karl Marks mehnat tushunchasini tahlil qilishni 1844 yilda yozilgan "Iqtisodiy-falsafiy qo'lyozmalar"dan boshlagan bo'lib, bu masalani keyinchalik "Nemis mafkurası", "Qo'shimcha qiymat nazariyasi" va ayniqsa "Kapital" asarlarida chuqur rivojlantirgan. "Kapital" asarining birinchi jildidagi beshinchi bo'lim inson mehnatining mohiyatiga bag'ishlangan eng mukammal nazariy tahlillardan biridir. Karl Marks mehnatning mohiyatini aniqlashda dialektik yondashuv asosida tahlil qiladi. Aynan shu metodologik yondashuv mehnatga xos bo'lgan universal (umumiy) atributlarni, har bir tarixiy bosqichga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni hamda konkret mehnat turlarining alohida shakl va mazmunini tizimli tarzda ochib berishga imkon yaratadi"[4. B. 51.]. "Ushbu metodologik yondashuv asosida Karl Marks avvalo mehnatni "tarixiy bo'lmagan", ya'ni abstrakt va umumiy tushuncha sifatida – "umuman olgandagi mehnat" ko'rinishida tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, mehnat – bu eng avvalo jarayon bo'lib, u orqali inson o'z ongli faoliyati vositasida tabiat bilan moddalar almashinuvini boshqaradi va nazorat qiladi. Marks mehnatni inson va tabiat o'rtasidagi moddiy almashinuvning umumiy sharti, insoniyat hayot faoliyatining doimiy tabiiy asosi sifatida talqin etadi [5. B. 460]". Ushbu dialektikaga asoslangan metodologik yondashuv mehnatning:

- universal (umumiy) jihatlarini;
- tarixiy davrlarga xos xususiyatlarini;
- konkret mehnat turlarining shakl va mazmunini tizimli tarzda ochib berishga imkon beradi.

Shu tariqa, Marks mehnatni nafaqat iqtisodiy, balki tabiiy, tarixiy va falsafiy kategoriya sifatida ham chuqur o'rganadi.

Mehnatning umumiy xususiyatlari, avvalo, uning inson hayoti uchun zarur bo'lgan doimiy yuk va tabiiy shart sifatida mavjudligi nuqtai nazaridan aniqlanadi. Shu umumiy asosda Karl Marks mehnatning konkret-tarixiy shakllarini – jamiyatning ma'lum iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga xos bo'lgan ijtimoiy mehnat shakllarini alohida e'tiborga oladi. Tadqiqotchilardan A.Leksev va U.Muhmmadlatipovlar o'zlarining "Социэкономическая модель труда и предпринимательства" nomli monografiyalrida, K.Marks mehnatning bu tarixiy shakllarini, asosan, qiymat kategoriyasining ikki tomonlama tabiati – iste'mol qiymati va almashinuv qiymati o'rtasidagi birlik va ziddiyatni tahlil qilish orqali ochib beradi, deb tahlil qiladi. Bu tahlilni amalga oshirish uchun Marks butun bir nazariy kategoriyalar tizimini hamda ularni tadqiq etishning metodologik asoslarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda u insoniyatning umumlashtirilgan amaliy tajribasidan keng foydalangan holda, "mehnat, tovar, qiymat, ishlab chiqarish vositalari, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi moddiy almashinuv jarayonlarini umumiy va tarixiy nuqtai nazardan tahlil etdi" [4. B. 52]. Natijada "abstrakt mehnat", "almashinuv qiymati", "mehnat kuchining tovar sifatidagi mohiyati", "qo'shimcha qiymat", "egallash" va "kapitalistik ishlab chiqarish usuli" kabi asosiy tushunchalar mantiqiy tahlil yo'li bilan shakllantirildi va izchil tizimga keltirildi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalar tizimi mehnatning ikkitomonlama – bir vaqtning o'zida tabiiy va ijtimoiy jarayon sifatidagi mohiyatini yoritadi. Shu orqali mehnat inson rivojlanishining muhim omili sifatida qaraladi. U insonning ishchi kuchi sifatida shakllanishi bilan birga, uning shaxs sifatida ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ham o'z ichiga oladi.

Karl Marksning mehnat to'g'risidagi g'oyalari barobarida, nemis sotsiologiya maktabining yorqin namoyondalaridan biri Georg Zimmel (1858-1918 y.y) ni eslab o'tish o'rinni bo'lardi. U Emil Dyurkeym, Gustav Shmoller, Maks Sheler, Verner Zombart va Maks Veber kabi olimlar bilan bir

FALSAFA

davrda yashagan. Ularni birlashtiradigan narsa shundaki, barchasi jamiyatda mehnat va uning falsafiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolariga katta e'tibor qaratgan. Ularning oldingi avlodi – ta'bir joiz bo'lsa – raqibi esa Karl Marks bo'lgan. Aynan Marks bilan faol (ko'pincha masofaviy) munozaralar orqali ular o'z dalillarini mustahkamlashgan va nazariy bilimlar tizimini shakllantirgan. Bu tizim esa o'z metodologik platformasi, mantiqiy fikrlash tartibi va ideologik yo'nalishi jihatidan marksizmga to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshi yoki sezilarli darajada farq qiladi.

G.Zimmelning asosiy asari "Pul falsafasi" XIX asr oxiri XX asr boshlari nemis iqtisodiy sotsiologiyasi va siyosiy iqtisodidagi mehnat haqidagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Zimmel zamonaviy sanoat mehnati, mehnat harakati va tarbiyasi, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqlar, rahbarlik (liderlik) va autsayderlik (chetda qolganlik) o'rtasidagi munosabatlar, hukmronlik va bo'ysunish, birjadagi pul ayirboshlash, ayirboshlash va iste'mol qiymatini, guruh tuzilmasining ijtimoiy tabaqalanishini o'rganib, siyosiy iqtisod sohasida zamonaviy g'oyalarning asosini yaratdi. Uning dasturining boshlang'ich nuqtasi, I.Kravchenkning "Социофилософская концепция труда Георга Зиммеля" nomli maqolasida ta'kidlaganidek: mehnat mahsulining ikki tomonlama tabiati: u moddiy dunyoda paydo bo'ladi, lekin o'zining haqiqiy ma'nosini boshqa g'oyaviy dunyoda oladi. Pul toifasi unga "lupa" vazifasini o'tagan. Buning natijasida u ijtimoiy hayotning yashirin mexanizmlarini, ijtimoiy mehnatni normal va patologik ko'rinishlarida yaxshiroq tekshirishga muvaffaq bo'lgan"[6. B. 48]. Sunday qililib, u mehnatning:

- aqliy va jismoniy shakllari;
- rahbarlik va bo'ysunuv munosabatlari;
- ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari;
- pul va ayirboshlash munosabatlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy struktura va ziddiyatlarni

o'rganadi. Zimmelning yondashuvi mehnatni faqat iqtisodiy emas, balki madaniy va falsafiy kontekstda tushunishga imkon yaratadi.

Georg Zimmel o'z ilmiy izlanishlarida, bir tomondan, Karl Marks e'tiboridan nisbatan chetda qolgan masalalar – xususan qadriyatlar muammosiga alohida e'tibor qaratgan bo'lsa, boshqa tomondan esa Marksning asosiy nazariy yondashuvlariga, ayniqsa mehnat qiymati haqidagi ta'limotiga tanqidiy munosabat bildiradi. Zimmel "Pul falsafasi" asarida jamoaviy mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-iqtisodiy muammolarini chuqur tahlil qiladi. Aynan shu asarda mehnat sotsiologiyasi bilan bog'liq ko'plab mavzularni topish mumkin. "Bugungi zamonimizning barcha iqtisodiy ta'limotlari, deydi Zimmel, markaziy muammo – iqtisodiy qiymat atrofida aylanadi"[7. B. 466].

Qiymat deganda inson mehnati bilan to'ldirilgan ma'lum bir narsaga bo'lgan qiziqishimizni uyg'otadigan jihat nazarda tutiladi. Qiymat o'z-o'zidan barcha boshqa munosabatlarni belgilaydigan fundamental munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Zimmelning ta'kidlashicha, "real mavjudot dunyosi ustida bizning tuyg'ularimiz va intilishlarimizda mavjud bo'lgan ideal qadriyatlar dunyosi turadi – bu dunyo moddiy olamda mavjud bo'lgan narsalar va munosabatlardan mutlaqo farqli ierarxiyani quradi"[7. B. 146].

"Qiymat tushunchasiz umuman hech qanday bilim bo'lishi mumkin emas", - deydi Zimmel. [7. B. 146]. Yana yozadi: Qiymat har bir fanda u har xil shaklda rivojlanadi: axloqda bu – ezgulik, estetikada – go'zallik, falsafada – haqiqat, lekin mohiyat bir xil. Xuddi shunday, iqtisod ham qiymat kategoriyasiz mavjud bo'la olmaydi, garchi bu erda u ko'proq foyda yoki naf shaklida nomlanadi. Qiymat ayirboshlash jarayonida vujudga kelsa-da, uning haqiqiy paydo bo'lish joyi mehnat jarayoni hisoblanadi. Mehnat mahsulotlari o'z-o'zidan shaxsiyatsiz moddiy buyumlardir, biroq ular o'zaro munosabatga kirganida yangi sifatga ega bo'ladi – ular foydali, qimmatli, kamyob bo'ladi. Aynan shunda ularning ikki tomonlama tabiati namoyon bo'ladi: mehnat mahsulotlari jismoniy harakatlar orqali yaratilgan va moddiy obyektlar sifatida mavjud. Biroq ular oddiy tosh yoki suv emas. Mehnat mahsulotlari boshqa bir — ideal dunyoga ham tegishlidir, ular "haqiqat dunyosidan qadriyatlar dunyosiga olib boruvchi ko'prik vazifasini bajaradi"[7. B. 146]. G.Zimmelning mehnat munosabatlari haqidagi nazariy qarashlari zamonaviy davrda alohida ilmiy-ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, uning g'oyalari bilan K.Marks ta'limotlari o'rtasidagi tafovutlar masalasi mustaqil tadqiqot mavzusi sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Nemis sotsiolog va faylasufi M.Veber (1864–1920) mehnat muammosini tahlil qilishda o'z davrining ilmiy tafakkurida tub burilish yasagan olimlardan biri sifatida ajralib turadi. U mehnat munosabatlari va iqtisodiy taraqqiyot masalalarini o'rganishda diniy omilning ahamiyatini alohida

ta'kidlab, ushbu yondashuvni ilgari surgan ilk olimlardan biri bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XX asr boshlarida ilmiy doiralarda diniy masalalarni tahlil qilish hamda diniy omilning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi rolini muhokama etish akademik nuqtai nazaridan unchalik maqbul hisoblanmas edi. Bu davrda ijtimoiy fanlarda sekulyar yondashuv ustuvor bo'lib, din omili ko'pincha ilmiy tahlil doirasidan chetda qolgan. XX asr boshlarida fan bilan din o'rtasidagi qarama-qarshilik keskin tus olgan bo'lib, din ko'pincha ilmiy bilishga zid yoki to'siq sifatida talqin qilingan. Shunday sharoitda dinning iqtisodiy yoki ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'siri haqida gapirish akademik muhitda yangilik bo'lishi bilan birga, bahsli masala ham edi. Maks Veberning "Protestant etikasi va kapitalizm ruhi" (1905) asari ana shu kontekstdagi burilish nuqtasini tashkil etadi. U bu asarida protestant (xususan, kalvinistik) etikadagi diniy e'tiqodlarning kapitalistik iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan ta'sirini tahlil qilgan. Bu yondashuv, ya'ni diniy g'oyalarning iqtisodiy amaliyotga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish, o'sha davr uchun g'ayrioddiy yondashuv edi.

M.Veberning "*Protestant axloqi va kapitalizm ruhi*" (*nemischa asl nomi: "Die protestantische Ethik und der Geist des Kapitalismus, inglizcha: The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism*) asari ilk bor 1904–1905-yillarda ikki qismli maqola ko'rinishida M.Veber muharrirlik qilgan "Archiv für Sozialwissenschaft und Sozialpolitik" (*Ijtimoiy fanlar va ijtimoiy siyosat arxivi*) jurnalida chop etilgan bo'lib, darhol jiddiy tanqidiy munozaralarga sabab bo'lgan. Bu munozaralarda M.Veber o'zi ham faol ishtirok etgan. Mazkur asarning g'oyaviy va nazariy ta'siri oradan bir necha o'n yillar vaqt o'tganiga qaramay, hali-hanuz ijtimoiy fanlarda o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

M.Veberning "*Protestant axloqi va kapitalizm ruhi*" asarida zamonaviy kapitalizmning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirishga intilar ekan, avvalo kapitalistik tadbirkorlikni oddiy boylik orttirishga intilishdan ajratib ko'rsatadi. M.Veberning ilgari ta'biricha: "Boylikka ega bo'lish istagi turli davrlar va jamiyatlarda mavjud bo'lgan. Biroq u hozirgi davrdagi biz tushunadigan kapitalistik faoliyat bilan bog'liq emas. Kapitalistik harakat – bu foyda olishga yo'naltirilgan muntazam ravishda iqtisodiy ayirboshlashga asoslangan faoliyatdir. Shu tarzda ta'riflangan "kapitalizm" – masalan, savdogarlik faoliyati ko'rinishida – Bobil va Qadimgi Misrda, Xitoy, Hindiston hamda O'rta asr Yevropasida turli shakllarda mavjud bo'lgan. Biroq, G'arbda nisbatan yaqin tarixda kapitalistik faoliyat erkin mehnatning ratsional tashkil etilishi bilan bog'langan. M.Veber bu erda mehnatning "ratsional tashkil etilishi" deganda uni uzluksiz faoliyat yuritadigan korxonalar doirasida rejalashtirilgan, hisob-kitobli va muntazam boshqaruv asosida olib borilishini nazarda tutadi [8. B. 314].

Uning fikriga ko'ra, mehnat faoliyatining samaradorligi uni ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan ratsional harakatlar asosida tashkil etishga bog'liq bo'lib, bu holatda faoliyat boshqa individlarning mavjudligi va ularning ehtiyojlarini inobatga olgan holda resurslarni boshqarishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunday funksional harakatni ta'minlash uchun esa ishchilarga to'g'ri ruhiy intilish tizimini shakllantirish zarur. Shuningdek, inson mehnat faoliyatida yoki boshqa harakat yo'nalishlarini tanlashda asosan ratsional mezonlarga tayanishini ta'kidlaydi. Bu esa, uning shaxsiy dunyoqarashi yoki atrofidagi individlarning xulq-atvoriga asoslangan bo'ladi [9. B. 58].

M.Veber fikriga ko'ra, ratsionallashtirilgan kapitalistik korxona ikki muhim omilga tayangan bo'ladi: bu intizomli mehnat kuchi va kapitallarning muntazam investitsiya qilinishi. Har ikki jihat an'anaviy iqtisodiy faoliyat turlaridan keskin farq qiladi. An'anaviy jamiyatlarda boy kishilar kapitalistik tadbirkorlikdan foyda ko'radi, biroq bu foydani faqat moddiy qulaylik, rohat-farog'at yoki hokimiyat kabi maqsadlar uchun ishlatishadi. Kapitalning doimiy takror ishlab chiqarilishi – ya'ni uni iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash maqsadida uzluksiz investitsiya qilish – an'anaviy tadbirkorlik shakllariga yot hodisa hisoblanadi. Bunday yondashuv o'ziga xos dunyoqarashga asoslanadi: bu boylikni o'zi uchun, uni nima uchun ishlatish mumkinligidan qat'i nazar, doimiy ravishda jamg'arib borish g'oyasidir. Veberning ta'kidlashicha: "Inson pul topish va ortirish bilan hayotining yakuniy maqsadi sifatida boshqariladi. Iqtisodiy faoliyat endi insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida emas, balki o'ziga xos mustaqil maqsad sifatida qaraladi". Veberga ko'ra, bu zamonaviy kapitalizm ruhining asl mohiyatidir [8. B. 14].

Nega aynan tarixda noyob bo'lgan holat ya'ni, boylik to'plashga bo'lgan kuchli ishtiyoq uni ta'minlaydigan dunyoviy lazzatlarga befarqlik bilan birga yuzaga kelgan? Veberning ta'kidlashicha, bu holatni an'anaviy axloqiy me'yorlarning susayishi bilan izohlash katta xatodir. Aksincha, bu yangi dunyoqarash o'ziga xos axloqiy asosga ega bo'lib, o'ta intizom va o'zini tiyishni talab etadi. Ratsional kapitalizm rivojiga hissa qo'shgan tadbirkorlar boylik jamg'arish istagini soddalk va tejamkorlik bilan

FALSAFA

uyg'unlashtiradilar. Veber ushbu fenomenning ildizini puritanizmda shakllangan "dunyoviy asketizm"da, xususan **"kasbga chaqiriq"** (calling) g'oyasida ko'radi [8. B. 24].

Umumxristianlik ta'limotida asosiy e'tibor insonning gunohlardan poklanishiga qaratilgan bo'lib, ayniqsa katolik va pravoslav an'alarida bu masala markaziy axloqiy-metafizik ahamiyat kasb etadi. Mazkur konfessiyalarning diniy-falsafiy qarashlarida najot yo'li sifatida poklanish insonning nafaqat ruhiy, balki jismoniy mashaqqat va riyozat orqali o'zini tozalashi, gunohlarini yuvishi zarurligi bilan bog'lanadi. Bu yondashuv nasroniylkdagi asketizmning asosiy ustunlaridan biri bo'lib, uni imon, tavba va najot konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda talqin etish mumkin. Protestantlik ta'limoti esa bunday asketik g'oyani butunlay inkor etgan. M.Veber aynan manashu jihatga e'tibor qaratadi. Protestantlikdagi "najot yo'li" M.Veberning fikriga ko'ra, "chaqiriq" tushunchasi orqali reformatsiya davrida protestantlar tomonidan joriy qilingan. [8. B. 60] Bu tushuncha shaxsiy axloqiy burchning eng yuksak shakli sifatida dunyoviy faoliyatda o'z vazifasini bajarishga urg'u beradi. Bu esa diniy xulqni kundalik hayot doirasiga olib kiradi va katoliklarning monastir hayotiga asoslangan tarkidunyochilik idealiga zid keladi. Bundan tashqari, protestant uchun axloqiy mas'uliyat uzluksizdir.

Veber ta'kidlaganidek, garchi "chaqiriq" g'oyasi Martin Lyuter ta'limotlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, bu g'oya kalvinizm, metodizm, piyetizm va baptizm kabi puritan yo'nalishlarda yanada qat'iy shakllangan. Veberning asosiy e'tibori aynan kalvinizmga qaratilgan bo'lib, u bu erda nafaqat Kalvinning o'z ta'limotlari, balki ushbu g'oyalarning keyingi rivojlanishini ham o'rganadi. Veber alohida urg'u bergan Kalvinistik ta'limotlar orasida eng muhimlaridan biri "predestinatsiya", ya'ni ba'zi insonlarning najot topishi va boshqalarning mahkum bo'lishi oldindan Xudo tomonidan belgilanganligi haqidagi aqidadir. Kalvinning o'zi, Xudoning bashorat vositasi sifatida, o'z najotida qat'iy ishonchga ega bo'lgan bo'lishi mumkin. Biroq uning izdoshlarida bunday ishonch mavjud emas edi. Veber bu haqida shunday yozadi: "O'zining g'oyat shafqatsiz mohiyatida bu ta'limot unga o'zini butkul topshirgan bir avlod hayoti uchun o'ziga xos oqibatlariga olib kelgan. Bu misli ko'rilmagan ichki yolg'izlik hissi" [8. B. 60]. Aynan mana shu ruhiy azobdan, Veberning fikricha, kapitalistik ruhiyat dunyoga kelgan.

Din amaliyotida esa ikki yo'nalish yuzaga chiqdi: birinchidan, har bir shaxs o'zini najot topganlardan biri deb hisoblashga majbur edi, aks holda bu e'tiqod etarli emasligidan dalolat berardi; ikkinchidan, dunyoviy faoliyatdagi "yaxshi amallar" orqali o'z najotiga ishonch bildirish zarurati paydo bo'ldi. Natijada kasb-kordagi muvaffaqiyat najot topganlikning isboti sifatida ko'riladigan. Agar boylik halol mehnat, intizom va soddalik bilan qo'lga kiritilgan bo'lsa, u axloqiy jihatdan ma'qullandi. Qo'lga kiritilgan boylik behuda ishlarga yoki isrofgarchilikka sarflangandagina qoralandi. Veberning tahliliga ko'ra, kalvinizm kapitalistik tadbirkorning ichki axloqiy energiyasi va ruhiy kuchining manbai hisoblanadi. Veber bu ta'limotlarni o'z izdoshlaridan talab qiladigan qattiq intizomi bilan "temirdan yasalgan izchillikka ega" deb ta'riflaydi. Bu dunyodagi ishlarda asketik o'zini tiyish unsuri boshqa puritan sektalarda ham mavjud bo'lsa-da, ular kalvinizmning dinamikasiga ega emas. Veberning fikricha, bu boshqa yo'nalishlarning ta'siri asosan kapitalistik tuzumning quyi va o'rta qatlamlarida mehnat intizomini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Masalan, Veber yozadi: "Piyetizm ma'qullagan fazilatlar – bu sodiq amaldor, kotib, ishchi yoki xizmatkor fazilatlaridir" [8. B. 88].

Kalvinistik ta'limotda najot konsepsiyasi an'anaviy xristianlikdagi soteriologik yondashuvdan farqli o'laroq, bu dunyodagi amaliy hayot bilan chambarchas bog'langan holda talqin etiladi. Umumxristian aqidalariga ko'ra, najotga erishish va gunohlardan poklanish jarayoni cherkov institutlari orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa katolik va pravoslav konfessiyalarida ruhoniylar, ya'ni katoliklikda Papa, pravoslavlikda esa Yepiskop Xudoning erdagi vakillari sifatida e'tirof etilib, ular banda bilan iloh o'rtasida vositachilik funksiyasini bajaradilar. Mazkur vositachilik nafaqat ibodat va muqaddas marosimlar orqali, balki ayrim tarixiy bosqichlarda rasmiy hujjat – indulgensiya (gunohlarni kechirish haqidagi guvohnoma) berilishi bilan ham amalga oshirilgan. Bu kabi vositalar dindorga ruhiy taskin va najotga bo'lgan ishonch baxsh etgan.

Biroq protestantlik, xususan kalvinizmda bu vositachilik tamomila inkor qilinadi. Ruhoniylar najot masalasida mutlaq vakolatga ega emas, cherkov esa individual imon va axloqiy hayot ustidan hukmronlik qilmaydi. Kalvinistik e'tiqodda predestinatsiya g'oyasi asosida inson najot topganmi yo'qmi, bu faqat Xudoga ayon va inson uchun doimiy savol ostida qoladigan sirdir. Bu esa dindorni ruhiy jihatdan tushkunlik holatiga olib keladi. Chunki najotga erishganlik haqida aniq bir kafolat yo'q. Aynan shu noaniqlik holati dindorni najot belgilarini bu dunyoda izlashga undaydi. Hayotda

erishilgan muvaffaqiyat, boylik va mehnatsevarlik kalvinistik tafakkurda Xudoning marhamatidan dalolat beruvchi alomatlar sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, iqtisodiy farovonlik va kasbiy muvaffaqiyat najotga erishganlikning dunyoviy “belgisi” sifatida shakllanadi. Maks Veber o‘zining “Protestant axloqi va kapitalizm ruhi” asarida ushbu ruhiy-axloqiy jarayonni chuqur ilmiy tahlil qilib, zamonaviy kapitalistik ruhiyatning shakllanishida protestant etikasi, ayniqsa kalvinistik asketizmning hal qiluvchi rol o‘ynaganini asoslab berdi.

Maks Veber o‘zining sotsiologik tadqiqotlarida nafaqat G‘arb xristian madaniyati, balki Sharqiy dinlar va ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy tizimlarga ta’sirini ham atroflicha o‘rganishga intilgan. U tomonidan hind dinlari (xususan, hinduizm va buddaviylik), qadimgi yahudiylilik va konfutsiylik an‘analari doirasida mehnat, iqtisodiy faoliyat, dunyoviy asketizm va sotsial stratifikatsiya kabi masalalarning tahliliga bag‘ishlangan alohida tadqiqotlar olib borilgan. Bu asarlarida Veber turli diniy-dunyoviy axloqiy tizimlarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini qiyosiy tahlil asosida ochib beradi. Tadqiqotchilarning (masalan: Anthony Giddens) fikricha, Maks Veber Islom ta’limotining iqtisodiy va mehnatga oid konsepsiyalarini ham o‘rganishga katta qiziqish bildirgan. U Islomdagi mehnat etikasini, halol rizq topish haqidagi ta’limotlarni va iqtisodiy hayotdagi axloqiy-me’yoriy jihatlarni tahlil qilish orqali bu dinning iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri borasida izlanish olib borishni rejalashtirgan. Biroq uning vafoti sababli ushbu niyat to‘liq amalga oshmagan. Shunga qaramay, Veberning din, axloq va iqtisod o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni tahlil qilishga qaratilgan metodologiyasi, keyinchalik islomshunos sotsiologlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan ilmiy-texnik inqilob natijasida mehnatning falsafiy talqinida yangi konseptual savollar va muammolar shakllandi. Bu jarayon, eng avvalo, mehnat faoliyatining keng ko‘lamda mexanizatsiyalashuvi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi hamda insonning mehnatga bo‘lgan munosabatida sodir bo‘lgan chuqur strukturaviy va axloqiy o‘zgarishlar XX asrning ikkinchi yarmida mehnatning qadriyat sifatida inqiroziga bog‘liq edi [1. B. 628]. Yuqoridagi K.Marks, F.Engels, G.Zimmel, M.Veber va boshqa faylasuf, sotsiologlar fikarlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, klassik kapitalizm (asosan XVIII–XIX asrlar va XX asr boshlarida), shuningdek, boshqa faylsafiy ta’limotlar ham, mehnatni insoniy hayotning markaziy elementi sifatida ko‘rdi. Bu davrda mehnat avvalo axloqiy qadriyat deb qaraldi. Mehnat nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki ma’naviy jihatdan poklanish, jamiyatga foyda keltirish, o‘zini oqlash va hayot mazmunini topish vositasi sifatida tushunildi. Shu bilan birga mehnat ekzistensial xususiyatlarga ega edi. Insonning o‘zini anglashi, o‘zini jamiyatda muayyan maqomda ko‘rishi ko‘p hollarda uning mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘ldi.

Ammo, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mehnatning qadriyat sifatida inqirozi boshlandi deyish mumkin. Bu holatga bir qancha omillarni sabab qilib keltiriladi:

Birinchidan mehnat va mehnat jarayonlari, xususan ishlab chiqarish transformatsiyaga uchradi. Avvallari asosiy iqtisodiy faoliyat moddiy ishlab chiqarishga bog‘liq bo‘lsa, bu davrdan boshlab xizmat ko‘rsatish sohasi ustunlik qila boshladi. Ishlab chiqaruvchi mehnatning qisqarishi mehnatning an’anaviy tushunchasini o‘zgartiradi. Endi ko‘plab ishlar “nomoddiy”, “ijtimoiy”, “informatik” xususiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, qadriyatlar tizimida o‘zgarishlar yuz berdi. Nemis sotsiologlarining kuzatuvlariga ko‘ra, 1960-yillardan avvallari mehnatsevarligi bilan tanilgan nemis jamiyatida mehnatga bo‘lgan munosabat o‘zgaradi, mehnatdan qoniqish pasayadi, uni hayot mazmuni sifatida ko‘rish kamayadi [1. B. 628]. Uning o‘rnini bo‘sh vaqt, dam olish, iste’mol, o‘zini ifoda etish boshqach aytganda chegaralanmagan erkinlikka erishish kabi yangicha qadriyatlar egallay boshladi.

Uchunchidan, mehnat jamiyatidan “postmehnat jamiyati”ga, ya’ni “Postindustrial jamiyat”ga o‘tish. Jamiyat tarixan mehnat jamiyati bo‘lgan, ya’ni deyarli barcha ijtimoiy institutlar mehnat atrofida qurilgan: ta’lim tizimi kishini ishga tayyorlash uchun, oila iqtisodiy birlik sifatida, pensiya mehnatga hissa sifatida belgilangan. Mehnat jamiyatida mehnat ijtimoiy qadriyat sifatida markaziy o‘rin tutgan bo‘lib, ish bilan bandlik shaxsning jamiyatdagi maqomini belgilovchi asosiy omil hisoblangan. Ishsizlik esa ijtimoiy muammo va stigmatizatsiyaga sabab bo‘lgan. Bunday yondashuv, ayniqsa, XIX–XX asrlardagi kapitalistik hamda sotsialistik tizimlar uchun xos bo‘lib, “mehnat orqali o‘zini ro‘yobga chiqarish” g‘oyasi jamiyat mafkurasining asosiy tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Mazkur kontseptsiya quldorlik yoki feodal ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar hukmron bo‘lgan davrlar uchun xarakterli emas, chunki bu bosqichlarda mehnat shaxsiy erkinlik va ijtimoiy o‘zini anglash bilan emas, balki majburiylik va ijtimoiy tabaqalanish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Ammo guvoh bo‘lib turganizmdan, mehnat jamiyati “qulayapti”. Yangi “postindustrial jamiyat” iqtisodiyotida odamlar qisqa muddatli,

FALSAFA

moslashuvchan, masofaviy, ko'pincha avtomatlashtirilgan ishlarda band bo'layapdi. Mehnatga barqarorlik, identitetlik (shaxsiylik), ijtimoiy maqom belgisi sifatida qarash yo'qola boshlamoqda.

"Postindustrial jamiyat – ijtimoiy falsafa va sotsiologiya fanlari doirasida tarixiy jarayonga sivilizatsion yondashuvni hamda sivilizatsiya taraqqiyotining hozirgi bosqichini ifodalash uchun qo'llanadigan tushuncha. Postindustrial jamiyat atamasi birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog, futurolog Daniyel Bell (1919-yilda tug'ilgan) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Bell dastlab bu tushuncha orqali ta'limoti nomini ("Postindustrial jamiyatning vujudga kelishi. Ijtimoiy bashoratchilikdagi avantyura", 1973), keyinchalik esa sivilizatsiya real rivojidagi konkret bosqichni ifodalagan. Uning fikricha, tarix sivilizatsion tashkilotlarning biri o'rnini boshqasi izchil ravishda egallaydigan uch bosqichli jarayon (an'anaviy jamiyat, industrial jamiyat va postindustrial jamiyat) sifatida namoyon bo'ladi" [10. B. 491]. Yana shuni aytish mumkinki, Postmehnat jamiyati – bu mehnatning ijtimoiy markaziy ahamiyatini yo'qotishi, uning o'rniga avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, xizmat ko'rsatish, kreativ iqtisodiyot va boshqa shakllarning o'sib borishi bilan xarakterlanadi. "Mehnat jamiyati" va "postindustrial jamiyat" orasidagi farqlarni ochib berish alohida tadqiqot o'be'tidir.

To'rtinchidan, Sun'iy intellekt va yangi avtomatlashtirish davrining jadal rivojlanishi. Mehnat jarayonlarini avtomatlashtirish yangilik emas. Klassik avtomatlashtirish jismoniy mehnatni almashtirgan masalan, konveyer liniyalari, sanoat robotlari va boshqalar. Ammo yangi bosqichda esa aqliy, intellektual mehnat ham xavf ostida qolmoqda. Bu bosqichdagi rivojlanish AI muhandislik, huquqshunoslik, tibbiyot, jurnalistika, hatto san'at kabi sohalarda ham inson o'rnini bosa oladi. Bu jarayon nimalarda namoyon bo'lmoqda? Avvalo kompetensiyalarning yo'qolishiga olib keladi. Xodimlar o'z malakasini yo'qotadi, ular faqat tizimlar uchun yordamchi funksiyalarni bajaruvchi elementlarga aylanadi. Kasblar o'xshatish joiz bo'lsa, "parodiya"ga aylanadi. Ya'ni, ilgari murakkab, qadri bo'lgan kasblar endi faqat texnologiyaga xizmat qiluvchi ikkilamchi faoliyatga tushib qoldi. Masalan, bir vaqtlar murakkab bo'lgan tarjimonlik bugun oddiy mashina tarjimalari bilan almashtirilmoqda.

Yuqoridagi omillar yangi falsafiy yo'nalishga ehtiyoj sezdirmoqda. Bugungi mehnat haqidagi muhokamalar, avvalgi davrlar bilan solishtirganda, mehnatning nafaqat iqtisodiy, balki falsafiy asoslari ham o'zgarayotganini ko'rsatadi. Mehnat bir vaqtlar insonni belgilagan, unga ma'no bergan faoliyat edi. Hozir esa texnologiya ta'sirida bu ma'no yo'qolmoqda. Shu sababli yangi mehnat konsepsiyasi, yangi jamiyat tuzilmasi va yangi axloqiy yo'nalishlar zarur. Kelgusi vazifa mehnatni nafaqat iqtisodiy, balki falsafiy, ma'naviy, psixologik va albatta diniy-ma'rifiy jihatdan ham qayta talqin qilish kerak. Bu yo'nalishda quyidagi savollarni o'rta tashlash mumkin: Mehnatning mavjud zamonaviy shakllari inson uchun kerakmi yoki yo'qmi? Mehnat orqali o'z-o'zini anglash mumkinmi? Yoki mehnat "insonni emiruvchi" kuchga aylanib bo'lganmi? Albatta bu savollar kelgusidagi tadqiqotlarimizning marakazidagi mavzular bo'ladi.

XULOSA

Mehnat tushunchasining falsafiy rivojlanishiga bag'ishlangan kichik bir izlanishimizdan quyidagi xulosalarga kelindi:

Yuqoridagi tahlillar mehnatning g'oyaviy-falsafiy talqinlari har bir tarixiy davrda jamiyat taraqqiyoti, insonning o'zini anglash jarayoni va ijtimoiy munosabatlar tizimining markazida turganligini ko'rsatadi. Fridrix Engels mehnatni insoniyatning evolyutsion shakllanishidagi asosiy omil sifatida baholagan bo'lsa, Karl Marks mehnatni iqtisodiy, ijtimoiy va falsafiy kategoriya sifatida tahlil qilib, uning mazmun-mohiyatini dialektik-materializm asosda chuqur ochib bergan. Georg Zimmel mehnatni nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va qadriyatlar kontekstida o'rgangan bo'lib, u mehnatning moddiy va ideal dunyo o'rtasidagi ko'pri ekanligini ta'kidlaydi. Maks Veber esa mehnat etikasi va diniy e'tiqodlar o'rtasidagi murakkab aloqani tahlil qilish orqali kapitalizm taraqqiyotidagi axloqiy-diniy omilning hal qiluvchi o'rnini ko'rsatgan.

Bu yondashuvlarning har biri mehnatni o'z zamonasiga xos ijtimoiy-falsafiy muammolar doirasida yoritgan bo'lsa-da, ularning umumiy jihati – mehnatning inson hayotidagi markaziy o'rnini, uning faqat iqtisodiy emas, balki ontologik, madaniy va axloqiy mazmunga ega faoliyat ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, XX asr ikkinchi yarmidan boshlab yuzaga kelgan texnologik inqilob, xizmat sohasining ustuvorligi, erkinlik va iste'mol madaniyatining kuchayishi natijasida mehnat qadriyat sifatida inqirozga uchradi. "Mehnat jamiyati"dan "postmehnat jamiyati"ga o'tish jarayoni inson hayotining mazmunini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Shunday qilib, mehnatga nisbatan falsafiy yondashuvlar tarixiy jarayonlar, g'oyaviy oqimlar va madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Kelajakda esa bu masala zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot va insonning o'zini anglash istagi kontekstida yangicha yondashuvlar talab qilmoqda. Shu jihatdan, mehnatning mohiyatini qayta falsafiy mulohazadan o'tkazish bugungi kunning ham dolzarb ilmiy va ijtimoiy vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Р. А. Шамсудинов. *Понятие труда с точки зрения философии* / Текст : непосредственный // Молодой ученый. -2024. № 22 (521). -С. 625-628. — URL: <https://moluch.ru/archive/521/115026/> (дата обращения: 02.04.2025).
2. Fridrix Engels. *Der Antheil der Arbeit an der Menschwerdung des Affen* (Maymunning odamga aylanish jarayonida mehnatning roli). "Verlang" nashriyoti, Berlin. 1954. (elektron shakli)
3. Фридрих Энгельс. *Диалектика природы*. «ОГИЗ-ГОСПОЛИТИЗДАТ». Москва, 1941 г. 338 с.
4. О.А.Алексеев, Ф.У. Мухметлатыпов *Социоэкономическая модель труда и предпринимательства*: Монография. Уфа: РИО БашГУ, 2005. – 278 с.
5. К.Маркс, Ф. Энгельс Соч. Т. 23. «Государственное издательство политической литературы». Москва. 1960. 907 с.
6. А.И Кравченко *Социофилософская концепция труда Георга Зиммеля*. SCIENCES OF EUROPE # 14 (14), 2017 PHILOSOPHICAL SCIENCES. 49-64 с.
7. Г.Зиммель *Избранное. Том второй Созерцание жизни*. Москва. «Юрист» 1996. 607 с.
8. Max Weber. *The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism*. Translated by Talcott Parsons With an introduction by Anthony Giddens. "Routledge is an imprint of the Taylor & Francis Group". London. 2005. 314 p.
9. И.М. Вельм «Духовно-нравственные особенности формирования трудовой мотивации в работах европейских мыслителей». (М.Вебер, А.Маслоу, К.Маркс) // *Context and Reflection: Philosophy of the World and Human Being*. 2022, Vol. 11, Is. 3A. 50-51 с.
10. Қ.Назаров ва б. Маънавият асосий тушунчалар луғати. Матн: луғат. "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, Тошкент. 2021. 816 б.